


SANOAT

Sanoat viloyatimiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki, sanoat o'zining qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojini qondirishdagi o'rni va yuqori darajaga ega bo'lgan ishlab chiqarish lokomotivi bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keladi. Sanoat sohasida qazib olingan, ekib o'stirilgan barcha resurslarni qayta ishlash, ulardan yangidan-yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturaning ko'payishi hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi.

Diversifikatsiya jarayoni sanoat sektoridagi barcha qazib olingan va o'stirilgan resurslarni qayta ishlash, ulardan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, assortiment va nomenklaturani ko'paytirish hisobiga yaxshilanadi.

Viloyatimizda 2020-yil yanvar-aprel oylarida jami sanoat mahsulotining 1,7 % tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yaratilgan bo'lsa, 99,2 % qayta ishlash sanoatiga, 6,2 % elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, 1,0 % suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga to'g'ri kelgan.



IFUT-2 - Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumdavlat tasniflagich*

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2020-yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalari tomonidan 1593,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,1 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 26,6 mlrd. so'm, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat 1451,4 mlrd. so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 99,2 mlrd. so'm va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 16,2 mlrd. so'mlik ish hajmlari bajarildi.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'mda




2020-yilning yanvar-aprel oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ko'rsatkichlari

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ini tashkil etdi.



ulushi, %da





Tuman (shahar) nomi	hajmi, mln. so'm
Arnasoy	-
Baxmal	924.3
G'allaorol	9634.4
Sh.Rashidov	1693.0
Do'stlik	-
Zomin	6607.0
Zarbdor	-
Zafarobod	648.0
Mirzacho'l	-
Paxtakor	34.2
Forish	5416.0
Yangiobod	46.6
Jizzax sh.	1588.3

Hududlar miqyosida olib qaralganida, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi bo'yicha asosiy ulush Zomin, G'allaorol va Forish tumanlari hamda Jizzax shahriga to'g'ri keladi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1451,4 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 91,1 % ni tashkil etdi.




O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulush to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda 44,2 % kuzatildi. Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 16,8 % ni, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 7,5 % ni, kiyim ishlab chiqarish 5,7 % ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin.

Tuman (shahar) nomi	hajmi, mln. so'm
Arnasoy	60712.2
Baxmal	19134.8
G'allaorol	26066.9
Sh.Rashidov	68529.4
Do'stlik	309763.4
Zomin	71259.7
Zarbdor	83812.1
Zafarobod	119165.5
Mirzacho'l	17131.6
Paxtakor	153792.4
Forish	33768.4
Yangiobod	14323.7
Jizzax sh.	473942.6

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligini rivojlantirish va mehnat bozori bilan ishlashi va o'z-o'zidan ishlab chiqarish sanoatini yangidan rivojlantirishga ko'maklashish markazi tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori loyihasini amalga oshirish, Jizzax viloyatida amalga oshirilgan ishlarni bajarish bo'yicha kengash ishlari yaxshi rivojlanmoqda.


2020-yil 1-may holatiga ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



O'z navbatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari eng yuqori o'sish sur'ati oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 151,8 % ni tashkil etdi. Shuningdek xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatida o'sish sur'ati 137,6 %, tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suvni ta'minlash xizmati 122,7 % da o'sish sur'atiga erishildi.



2020-yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

2020-yilning yanvar-aprel oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 99,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ini) tashkil etdi. Shu bilan birga fizik hajmi indeksi 127,9 % ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-aprel oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 16,2 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, ishlab chiqarish indeksi 119,7 %ni tashkil etdi.




2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi

ulushi, % da



Viloyat miqyosida quyi texnologiyadan foydalanish darajasi joriy yilning yanvar-aprel oylari bo'yicha 71,2 % ni tashkil etib, asosiy ulushni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich, joriy yilning yanvar oyiga nisbatan taqqoslaganda ko'paygan.



hajmi, mlrd. so'm



O'rta-quyi texnologiyadan foydalanish darajasi joriy yilning yanvar-aprel oylari yakuni bo'yicha 13,7 %ni tashkil etgan bo'lib, joriy yil yanvar oyiga nisbatan kamayishi kuzatilgan. O'rta-yuqori texnologiyadan foydalanish darajasi esa, joriy yilning yanvar-aprel oylari bo'yicha 3,8 % ni tashkil etgan bo'lib, joriy yil boshidan buyon o'sishi kuzatilgan.


Jizzax viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-aprel oylarida amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari 1593,4 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,1 % ni tashkil etdi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



Joriy yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarish indeksi (101,1 %) ning yanvar oyi (102,8 %)ga nisbatan (1,7 bandga) tushganligini ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi to'quv va trikotaj buyumlar ishlab chiqarish hajmining kamayganligi bilan izohlash mumkin.

Sanoatning ishlab chiqarish indeksi, %da



2020-yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarish indeksi, %da


Tuman (shahar) nomi	yanvar-fevral	yanvar-mart	yanvar-aprel
Arnasoy	106.1	111.1	103.2
Baxmal	105.3	121	98.8
G'allaorol	99.1	123.1	111.7
Sh.Rashidov	118.6	112.7	105.5
Do'stlik	96	119.6	108.2
Zomin	117.1	118	128.3
Zarbdor	136	123.8	100.6
Zafarobod	39.9	70.4	124.9
Mirzacho'l	111.7	122.5	94.9
Paxtakor	88.3	94	139.4
Forish	86.6	111.8	88.0
Yangiobod	101.6	122.9	82.5
Jizzax sh.	103.7	123.7	96.5

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarish indeksi (IFO) 101,1 % ni tashkil etgan bo'lib, hududlarda eng yuqori ishlab chiqarish indeksi Paxtakor tumani 139,4 %, Zomin tumani 128,3 %, Zafarobod tumani 124,9 %, G'allaorol tumani 111,7 %, Do'stlik tumani 108,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, eng past indeks Yangiobod tumanida 82,5 % va Forish tumanida 88,0 % ni tashkil etdi.

Joriy yil boshiga nisbatan Zomin (103,5 % dan 128,3 % ga), Zafarobod (77,2 % dan 124,9 % ga) va Do'stlik (105,5 % dan 108,2 % ga) tumanlarida ijobiy o'sish sur'atlari kuzatildi.

2020-yilning yanvar-aprel oylarida sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'ri, %da

Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishi natijasida jami sanoatda hududlarning ulushi sezilarli oshmoqda. Bunda eng yuqori ulush Jizzax shahrida (37,0 %) kuzatildi. Shu bilan birgalikda, Do'stlik (19,4 %), Paxtakor (9,7 %), Zafarobod (7,5 %), Zarbdor (5,3 %), Zomin (4,9 %) va Sh.Rashidov (4,4 %) tumanlarida yuqori ulushni ko'rish mumkin.





ISTE'MOL MAHSULOTLARI

2020-yilning yanvar-aprel oylarida

- iste'mol mahsulotlarida ishlab chiqarish hajmi 560,2 mlrd. so'm
- iste'mol mahsulotlarida o'sish sur'ati 97,2 %



Jami iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

560,2 mlrd. so'm



oziq-ovqat mahsulotlari hajmi



222,3 mlrd. so'm



nooziq-ovqat mahsulotlari hajmi

337,9 mlrd. so'm

Jami iste'mol mahsulotlari tarkibi, %da




Amaldagi narxlarda aholi jon boshiga jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 1150,3 ming soʻmni tashkil etdi. Jumladan, Jizzax shahrida 3315,1 ming soʻmni, Doʻstlik tumanida 4728,6 ming soʻmni, Zafarobod tumanida 2404,5 ming soʻmni va Paxtakor tumanida 2066,4 ming soʻmni tashkil etdi.


2020-yilning yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va isteʼmol mahsulotlari, ming soʻm

Tuman (shahar) nomi	Sanoat mahsulotlari	Isteʼmol mahsulotlari
Arnasoy	1322.5	463.5
Baxmal	128.5	125.5
Gʻallaorol	208.1	143.4
Sh.Rashidov	320.2	243.1
Doʻstlik	4728.6	1048
Zomin	475.3	346.1
Zarbdor	972.8	214.4
Zafarobod	2404.5	303.2
Mirzachoʻl	331.3	311.8
Paxtakor	2066.4	461.7
Forish	423.9	255.5
Yangiobod	511.8	508.4
Jizzax sh.	3315.1	1087.2

Sanoatda aholi jon boshiga




Isteʼmolda aholi jon boshiga



Maʼlumot uchun: sanoat mahsulotlarida aholi jon boshiga ishlab chiqarish indeksi (IFO) orqali hisoblanadi, isteʼmol mahsulotlarida esa oʻtgan yilning mos davriga nisbatan hisob-kitob amalga oshiriladi.


Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1-may holatiga sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 100 ta horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 21,7 % ni tashkil etdi.

Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari ulushi, %da




Horijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi

2020-yil yanvar-aprel oylaridagi hajmi, mln. so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan, joriy yilning 1-may holatiga sanoat tarmog'ida faoliyat yuritayotgan 2874 ta kichik biznes sub'ektlari tomonidan 698,4 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat ishlab chiqarishi hajmi

2020-yil 1-may holatiga hajmi, mlrd. so'm




Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning 1-may holatiga kichik biznes subyektlari tomonidan bajarilgan 450,3 mlrd. so'mlik iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xududlar miqyosida qaraganda Jizzax shahrida 144,0 mlrd. so'm, Zomin 56,7 mlrd. so'm, Sh.Rashidov 53,7 mlrd. so'm, G'allaorol 24,6 mlrd. so'm, Forish 23,6 mlrd. so'mlik yuqori hajmli iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilgan.

Iste'mol mahsulotlarida kichik biznesning hajmi va ulushi






2020-yil 1-may holatiga



Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari

Viloyatda 2020-yil 1-may holatiga 2908 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 952 tasi Jizzax shahrida, 615 tasi Sharof Rashidov, 253 tasi G'allaorol, 232 tasi Zomin, 132 tasi Forish, 115 tasi Zarbdor, 116 tasi Do'stlik, 112 tasi Paxtakor, 103 tasi Baxmal, 84 tasi Zafarobod, 82 tasi Mirzacho'l, 61 tasi Arnasoy va 51 tasi Yangiobod tumanlarida joylashgan.


2020-yil 1-may holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda



Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonolari joylashgan hududlar 5 taligida Jizzax shahri (952 ta), Sharof Rashidov (615 ta), G'allaorol (253 ta), Zomin (232 ta) va Forish (132 ta) tumanlari qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar tarkibida sanoat korxonolari o'rni, %da

2020-yil 1-may holatiga



- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Tashish va saqlash
- Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- Boshqa turlari

Joriy yilning 1-may holatiga Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan jami korxonalar tarkibida sanoat korxonolari ulushi 19,3 % ni tashkil etadi. Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonolari tarkibida kichik biznes subyektlari ulushi 98,9 % ni tashkil etadi.

Sanoat statistikasi bo'limi
telefon: (72) 221-51-13